

THE ISSUE OF EQUIVALENCE IN POETRY TRANSLATION

Dilobar ABDUKHALILOVA

Doctoral student (PhD)
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan

SHE'RIY TARJIMADA EKVIVALENTLIK MASALASI

Dilobar ABDUXALILOVA

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Doktorant (PhD)
Toshkent, O'zbekiston

ПРОБЛЕМА ЭКВИВАЛЕНТНОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ СТИХОТВОРЕНИЙ

Диловбар АБДУХАЛИЛОВА

Докторант (PhD)
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан dilobar.abdukhalilova@mail.ru ORCID.ID: 0009-0008-3254-4922

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Abduxalilova D. She'riy tarjimada ekvivalentlik masalasi // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 4. — B.167-183,

<https://doi.org/10.36078/1758094180>

Received: May 12, 2025

Accepted: August 17, 2025

Published: August 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).
This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).
<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. Poetry translation is a complex process that requires the translator not only to have linguistic knowledge but also to have poetic talent. Because the translation of prose works is carried out only in terms of content, in poetic translation, along with the content, equivalence of formal poetic units is also required. Since poetry is a soul, so that its translation can also take place in the soul, conveying the content while adhering to the poetic laws of the target language has always been an urgent issue. The aim of the study is to conduct a practical analysis of the problems of equivalence in indirect and direct translations of Goethe's poetry into the Uzbek language. This issue is one of the most important problems of translation studies. In the process of poetic translation, the correct use of formal units and means, along with meaning, serves to achieve an adequate translation. The main objectives of the study are to theoretically study the classifications of equivalence in translation studies, to practically analyze the problems of equivalence in translations of Goethe's poetry into Uzbek, to analyze the types of semantic, structural and pragmatic equivalence through the classification of V. Koller, and to propose alternative options for translations based on the theoretical knowledge and practical analysis studied. The study used the methods of linguopoetic analysis and component analysis to analyze the poems from a practical perspective. The results of the study showed that indirect translations are mainly characterized by talented individuals who are familiar only with the intermediary language and unaware of the tone of the original. Consequently, in these translations, while cases of formal conformity and semantic deviation from the original were observed, direct translations yielded the opposite result. Thus, translators who specialize in translating poetry are required to possess excellent knowledge of two languages and be familiar with the poetic systems in each language. Otherwise, he will only be translating words.

Keywords: poetry; poetic regularity; poetic translation; pragmatic equivalence; isometric; heterometric; complete rhyme; rhyme scheme; connotative equivalence.

Annotatsiya. She'rlar tarjimasi murakkab jarayon bo'lib, tarjimondan nafaqat til bilimlari, balki shoirona iste'dodga ega bo'lishni ham talab qiladi. Zero nasriy asarlar tarjimasi faqat mazmun planida amalga oshirilsa, she'riy tarjimada mazmun bilan birga shakliy poetik birliklar ekvivalentligi ham talab qilinadi. She'r ko'ngil mulki ekan, uning tarjimasi ham ko'ngillardan joy olmog'i uchun, tarjima tilidagi she'riy qonunlarga amal qilgan holda, mazmunni yetkazib berish hamma zamonlarda ham dolzarb masalalardan biri hisoblangan. Tadqiqotning maqsadi Gyote she'riyatining o'zbek tiliga tarjimalaridagi ekvivalentlik muammolarini amaliy tahlil qilishdan iborat. Bu masala bugungi kunda tarjimashunoslikning eng muhim va dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. She'riy tarjima jarayonida ma'no bilan birga shakliy birliklar va she'riy vositalarni ham to'g'ri qo'llay olish adekvat tarjimaga erishish jarayonida munosib ekvivalent tanlashga xizmat qiladi. Tadqiqotning asosiy vazifalari tarjimashunoslikda ekvivalentlikning klassifikatsiyalarini nazariy tadqiq etish, Gyote she'riyatining o'zbek tiliga tarjimalaridagi ekvivalentlik muammolarini amaliy tahlil qilish, semantik, struktural va pragmatik ekvivalentlik turlarini V. Koller klassifikatsiyasi orqali tahlil qilish, o'rganilgan nazariy bilimlar va amaliy tahlillar asosida tarjimalarga muqobil variant taklif qilishdan iborat. Tadqiqotda lingvopoetik tahlil va komponentli tahlil metodlaridan foydalanilib, she'rlar amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bilvosita tarjimalar asosan iste'dodli, vositachi tilnigina bilib, asliyat ohangidan xabardor bo'lmaganligi uchun, ushbu tarjimalarda, shakliy jihatdan muvofiqlik ma'no jihatdan asliyatdan chekinish holatlari kuzatilgan bo'lsa, bevosita tarjimalar buning aks natijasini ko'rsatdi. Xulosa qilib aytganda, she'riy tarjimaga qo'l urayotgan tarjimonlar, ikki tilni mukammal bilishi, tillardagi she'riy tizimlardan xabardor bo'lishi talab etiladi. Aks holda, u faqatgina so'zlarni tarjima qilibgina qolgan bo'ladi.

Kalit so'zlar: she'riyat; she'riy qonuniyat; she'riy tarjima; pragmatik ekvivalentlik; izometrik; heterometrik; to'liq qofiya; qofiyalanish sxemasi; konnotativ ekvivalentlik.

Аннотация. Перевод поэзии — это сложный процесс, который требует от переводчика не только лингвистических знаний, но и поэтического таланта. Если перевод прозаических произведений осуществляется лишь с точки зрения содержания, то при переводе поэтических текстов наряду с передачей содержания необходимо также добиваться эквивалентности формальных поэтических единиц. Поскольку поэзия является выражением души, то и её перевод должен быть сопричастен душе: передача содержания с соблюдением поэтических законов языка перевода всегда оставалась актуальной проблемой. Цель данного исследования — провести практический анализ проблем эквивалентности в косвенных и прямых переводах поэзии Гёте на узбекский язык. Этот вопрос является одной из важнейших проблем переводоведения. В процессе поэтического перевода правильное использование формальных единиц и средств наряду со смыслом служит достижению адекватности перевода.

Основные задачи исследования: теоретическое изучение классификаций эквивалентности в переводоведении, практический анализ проблем эквивалентности в переводах

поэзии Гёте на узбекский язык, рассмотрение типов семантической, структурной и прагматической эквивалентности на основе классификации В. Коллера, а также предложение альтернативных вариантов перевода на основе изученных теоретических знаний и проведённого практического анализа.

В исследовании применялись методы лингвопоэтического и компонентного анализа для практического рассмотрения поэтических текстов. Результаты показали, что косвенные переводы в основном создавались одарёнными личностями, знакомыми лишь с языком-посредником и не чувствовавшими интонацию оригинала. Вследствие этого в таких переводах наблюдалось соответствие формы при смысловом отклонении от оригинала, тогда как прямые переводы дали противоположный результат. Таким образом, от переводчиков, специализирующихся на поэтическом переводе, требуется отличное знание двух языков и понимание поэтических систем каждого из них. В противном случае перевод сведётся лишь к передаче слов.

Ключевые слова: поэзия; поэтическая регулярность; поэтический перевод; прагматическая эквивалентность; изометрия; гидрометрия; полная рифма; схема рифмовки; коннотативная эквивалентность.

Kirish

She'riy tarjima boshqa tarjima turlariga nisbatan ancha murakkab san'at hisoblanadi. Original ijodda nasriy tasvirdan she'riy maqom qanchalik farqlansa, ikki til bilan bog'liq bo'lgan san'at dargohida nasriy tarjimadan she'riy tarjima ham shunchalik tafovut qiladi [Salomov 1979: 3]. Zero, nafaqat tarjimada balki asliyat tilida ham poeziya prozaga qaraganda ancha murakkab san'at turidir.

Har qanday badiiy asar shakl va mazmunning ajralmas qismidan iborat ekan, tarjimada ham bu yaxlitlikni saqlab qolish talab etiladi. Holbuki, ko'pchilik tarjimonlar asosiy e'tiborini mazmunni qayta yaratishga qaratib, shakl bilan hisoblashmaydilar. Natijada ularning tarjimalari mazmun jihatdan har qanchalik asliyatga qoyilmaqom bo'lmasin, shakl tomondan nomuvofiq bo'ladi [Ochilov 2022: 290].

G'. Salomovning fikricha, she'rni tarjima qilish mumkin emas deguvchilarni, adabiy aloqalarga, tarjimalarga dushman kishilar deb qaramaslik kerak. Bularning tashvishlarini va jonbozliklarini tushunmoq darkor. Ular poeziyani juda qadrlaganliklaridan, tarjimaga haddan ziyod katta talab va mas'uliyat bilan yondoshganliklaridan shunday fikrlarni bayon etganlar [Salomov 2023: 380].

Tarjima muammolari yoritilgan adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, ushbu sohada ko'p hollarda muqobillik va ekvivalentlik terminlari sinonim tushunchalar sifatida qaraladi. Tajimashunoslik sohasiga oid manbalar ko'zdan kechirilganda, Z. Sodiqovning "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" deb nomlangan darsligida yuqoridagi tushunchalarni bir-biridan farqlanganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. *Muqobillik* deganda muayyan kontekst ichidagina o'zaro mos kelish anglashilsa, ekvivalentlik ma'lum bir kontekstdan tashqarida ham o'zaro mutanosib kelishlikni bildiradi [Sodiqov 2023: 28]. Olimning fikriga tayangan holda shuni ta'kidlashimiz joizki, muqobillik (ya'ni adekvatlik) deganda muayyan matn ichida asliyat tilidagi so'z yoki iboralarni tarjima

tilida mos kelishini, ekvivalentlik deganda esa aynan o'sha tushuncha boshqa matnda ham bir-biriga mos kelishini ko'rishimiz mumkin. Shundan kelib chiqib, adekvatlik matnga nisbatan, ekvivalentlik esa so'zga nisbatan tushuncha deb qarashimiz mumkin.

Tarjima jarayonidagi ekvivalentsizlik va ekvivalentlilik normalariga oid tadqiqotlarda olimlar nazariyalari turlicha [Hamidov 2022: 78]. Bundan tashqari, ko'pgina olimlar adekvatlik va ekvivalentlik terminlarini aynan bir ma'noni ifodalovchi tilshunoslikning ikki termini sifatida qarashadi.

Tillar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida qaraladigan tarjima asosiy e'tiborni asliyat va tarjima tillari o'rtasidagi tizimning ma'no tomonlariga ahamiyat qaratishni talab etadigan ijodiy jarayondir. Lingvistik mutarjimlikning asosiy vazifalaridan biri tarjimalararo muqobilik tushunchasini muayyan qilishdan iboratdir [Musayev 2005: 53].

Tarjima sohasining muammolarini o'rganish doimo tarjimashunos, adabiyotshunos va tilshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Tarjimashunoslikda ekvivalentlik va she'riy tarjimaning nazariy masalalari bo'yicha V. Koller o'zining "Tarjimashunoslikka kirish" kitobida ekvivalentlik masalalariga alohida to'xtalib, ularni tahlil qilgan [Koller 2001]. J. House ham tarjimashunoslikdagi ekvivalentlik bilan bog'liq muammolarni o'rgangan olim sanaladi [House 2002]. K. V. Kulemina o'zining she'riy tarjimada adekvatlik va ekvivalentlikka bag'ishlangan dissertatsiyasida ingliz she'riyatidan rus adabiyotiga tarjima qilingan she'rlardagi adekvatlik va ekvivalentlik darajalarini o'rgangan [Kulemina 2006]. R. Abdullayeva o'zining "Shiller va o'zbek adabiyoti"ga bag'ishlangan ishlarida nemis va o'zbek adabiyoti va ularning tarjimalariga alohida to'xtalib o'tgan [Abdullayeva 2018]. M. Bakaeva she'riy tarjima borasidagi tadqiqotlarga tamal toshini qo'ygan "Angliya va AQSH adabiyotidan she'riy tarjima va qiyosiy she'rshunoslik muammolari" deb nomlangan dissertatsiyasida she'riy tarjimaning barcha muammolariga to'xtalib o'tgan [Bakayeva 2004]. G. Odilova ham M. Bakayevaning ishini davom ettirib, she'riy tarjima muammolarini adekvatlik nuqtayi nazardan o'rganadi. Olima o'z tadqiqotida bu maallaga ko'proq badiiy jihatdan yondashgan [Odilova 2011]. X. Rabbonqulov ham tarjima tarixi, taraqqiyot bosqichlari haqida ilmiy izlanishlar olib borgan olim sanaladi [Rabbanoqulov 2000]. D. A. Salimova o'zbek tilidan rus tiliga she'riy tarjima muammolarini tadqiq etib, Oybek she'riyatining rus tiliga tarjimalaridagi badiiy niyat va poetik mahoratni qayta ifodalanishini tadqiq etgan olim hisoblanadi [Salimova 2018].

Tarjimashunoslikda ekvivalentlik muammolari nafaqat filologik aspektda, balki pedagogik aspektda ham o'rganilgan tushunchalardan biridir. Zero, tarjimonlarning yuqori kompetensiyaga ega bo'lishida ekvivalentlik tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu xususda, professor I. Tuxtasinov o'zining "Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish" mavzusida yozilgan doktorlik dissertatsiyasida tarjimon kompetensiyasi, uning turlari va mazmuni, komponentlari borasida batafsil to'xtalib o'tgan. Ushbu tadqiqotning bizning ilmiy ishimizga aloqadorligi shundan iboratki, olim o'z dissertatsiyasining ikkinchi bobida ekvivalentlik kategoriyasining tuzilishini, tarjima strategiyalarini, so'zlararo ekvivalentlikni hamda

ekvivalenti bo'lmagan so'zlarning tarjima muammolarini o'rgangan. Tarjima muloqotidagi so'zlar ekvivalentini topish orqali so'z shakli, o'zaro bog'liqligi, sodda, yasama, qo'shma so'zlar bo'yicha semantik xususiyatlari hamda shakliy, kontekstual, sinonim, omonim, antonim ma'nolari orqali leksik va yosh, jins, dunyoqarash bo'yicha ekstralingvistik xususiyatlari aniqlashtirilgan [Tuxtasinov 2018: 10].

U. Yo'ldoshevning fikricha, tarjimada ekvivalent jarayoni manba tilidan tarjima tiliga o'tishda o'quvchida to'g'ri ma'lumotni shakllantirish holatida sodir bo'ladi. Tarjimaning maqsadi aslyiat va tarjima matni o'rtasida ekvivalentlik aloqasini o'rnatish bo'lganligi sababli to'laqonli tarjimani ikki mezon bo'yicha baholash mumkin:

1) ishonchlilik va aniqlik (aslyiat matnning ma'nosini unga fikr qo'shmasdan yoki olib tashlamasdan aniq tarjima qilish);

2) shaffoflik (ma'lum bir maqsadda tilning grammatik, sintaktik va idiomatik konvensiyalarini saqlab qolish) [Yo'ldoshev 2023: 301].

Yuqoridagi olimlarning nazariyasiga ko'ra ekvivalentlik nutq birliklarini o'z ichiga oladi va matn adekvatligida uning har bir segmentining ekvivalentligini nazarda tutmasligi haqida fikrlar bildirilgan. Til birliklari orasidagi munosabat til tizimi konteksti nuqtayi nazaridan uning paradigmatic aloqalari inobatga olingan holda kontrastiv lingvistika o'rganish predmetiga aylanib ketadi. L. S. Barxudarov o'zining "So'zning kontekstual ma'nosi va tarjima" nomli maqolasida tarjimada so'zning ekvivalenti matn bilan bog'liqligini ta'kidlab, bu holda so'zning ma'nosi lug'aviy ma'no bilan farq qilishi mumkin degan xulosaga keladi. Zero, tilshunoslikda *sinonimiya*, *bo'yoqdorlik*, *ma'no ko'chishi* kabi hodisalar va obrazli vositalar ham mavjud bo'lib, bu til birliklarini aynan so'zma-so'z tarjima qilish har doim ham muqobil tarjimani keltirib chiqarmaydi. Ayniqsa, she'riy tarjimada bu hol anchayin mushkul jarayon hisoblanadi. Ekvivalentlik invariantlik tushunchasi bilan ham bog'liq. Semiotik bosqichlarni qamrab olgan funksional turlar ekvivalentlikni ta'minlab beradi. Agar semiotik bosqichlarni ma'lum bir qismini qamragan bo'lsa, u holda bu yerda qisman ekvivalentlik haqida gap boradi. Agarda hamma semiotik bosqichlarni qamrab olgan bo'lsa, u holda to'liq ekvivalentlik haqida gap yuritishimiz mumkin. Demak, ekvivalentlik tushunchasiga ikki matn orasidagi munosabatni ifodalaydi deb ta'rif bersak xato bo'lmaydi. Bu borada adekvatlik bilan ekvivalentlik orasidagi farq mavhumdir. Komissarovning fikriga qo'shilgan holda, matn ichra ekvivalentlik til yoki nutq birligiga nisbatan qo'llaniladigan bo'lsa, adekvatlik matnlaro tenglilikni nazarda tutadi degan xulosaga kelamiz [Xatamova 2022: 47].

Asosiy qism

Adabiy aloqalarning eng rivojlangan tarmog'i bu millatlar va tillararo tarjimalar hisoblanadi. Bu soha vakillari hisoblanmish tarjimonlar o'ta murakkab va mashaqqatli jarayonni boshdan kechiradilar. Ta'bir joiz bo'lsa aytish mumkinki, aslyiat muallifi bilan dildan ruhan dillashib qayta ijod qiladilar. Aynan tarjimonlar asarlarning ellardan ellarga, tillardan tillarga, dillardan dillarga dunyo bo'ylab keuzishiga sababchi bo'ladilar. Shu boisdan ham ularning mashaqqatli mehnatlari mahsulini qadrlash va ularga ehtirom ko'rsatish zukko kitobxonning burchi sanaladi

[Imyaminova 2024: 5]. Bu o'rinda tarjima jarayonidagi muammolar bugungi kungacha ko'plab olimlar orasidagi bahs-munozaralarga sabab bo'layotganini va ular tomonidan mufassal o'rganib kelinayotganini ta'kidlash lozim. Shunday muammolardan biri bu tarjima jarayonida to'g'ri ekvivalent tanlash muammosi hisoblanadi. Chunki tarjimon oldida o'ta sharaflari va shu bilan bir qatorda o'ta mashaqqatli mehnat turadi. U ikki tilning chegarasida turishi lozim. Asar tarjimasidagi har qanday qo'shishlar ham yoki har qanday olib tashlashlar ham asarning saviyasiga putur yetkazib, uning qiymatini va qimmatini tushirishi mumkin. Shuning uchun to'g'ri ekvivalent tanlash orqali adekvat tarjimaga erishish tarjimon oldida hamma vaqt eng oliy va dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda ingliz, nemis, fransuz va shu bilan birga boshqa bir qator tillardan o'zbek tiliga ko'plab asarlar tarjima qilinmoqda. Ushbu tarjima asarlar badiiy adabiyotimiz xazinasini boyishiga va rivojlanishiga o'zining salmoqli hissasini qo'shib kelmoqda. Mavzuga doir ilmiy adabiyot va tadqiqot ishlarini o'rganish asnosida she'riy tarjimada ekvivalentlik muammolarini bir qancha yo'nalishlarda tadqiq etilganligi aniqlandi. Mustaqillik tufayli mamlakatimizda tarjimonlik rivoji uchun barcha sharoitlar muhayyo. Ayniqsa, bevosita tarjimaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Olmonchadan bevosita tarjima dastavval gyoteshunos olimi va tarjimon Yanglish Egamova tomonidan o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab amalga oshirildi. Keyinchalik nemis tili mutaxassislari orasidan Yo'ldosh Parda, Sadridin Salim Buxoriy, Mirzaali Akbarov, Posho Ali Usmon, Xurram Raximov, Shuhratxon Imyaminova, Oybek Ostons, Shaxnoza Quvonova singari tarjimonlar yetishib chiqdi va asliyatdan tarjima qilish ancha jonlandi [Imyaminova 2024: 5]. Olmon she'riyati namunalari eng avval Abdulla Sher tomonidan o'zbek tiliga o'girildi. Oxirgi paytlarda nafaqat nemis tilidan o'zbek tiliga, balki o'zbek tilidan ham nemis tiliga bevosita tarjimalar ko'paydi. Iste'dodli tarjimon O. Ostons Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, O'tkir Hoshimov hamda Abdulla Qahhor kabi o'zbek yozuvchilari asarlarini nemischaga o'girdi. Aynan mana shu ishlar tarjimashunoslikning bugungi kundagi rivojlanishiga o'zining ulkan hissasini qo'shmoqda. Tarjima ilmi egallagan olimlar professor Z. Sodiqov, Sh. Karimov, Sh. Imyaminovlar yaratgan darslik va o'quv qo'llanmalar ham tarjimashunoslikning ilmiy-nazariy asoslarini belgilab berganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim [Imyaminova 2024: 7]. Xususan, Z. Sodiqov o'zining tarjima nazariyasi va amaliyoti haqidagi darsligida tarjimashunoslik fanining har bir muammo va masalalariga alohida to'xtalib o'tgan. Taniqli olim va tarjimon Ibrohim G'ofurov esa tarjima tadqiqi borasida tanqidiy fikr bildirib, "qanchadan qancha jahon adabiyotining juda qimmatli namunalari o'zbek tiliga o'girilgan. Lekin ularning tahlili yo'q" [G'ofurov 2010: 3] degan fikrlari bejizga emas. Shu boisdan tadqiqotimizda she'riy tarjimalarning amaliy tahlilini nazariy asoslar asosida o'rgandik.

H. Rabbanoqulov ham "O'zbekistonda tarjimashunoslik ilmining taraqqiyoti" nomli dissertatsiyasida o'zbek adabiyotida tarjimaning o'rni va ahamiyati, bilvosita va bevosita tarjima, tarjimada tarjimon mahorati kabi masalalarning tadqiqi bilan shug'ullanadi. Olim rivojlangan tarjima ilmi hamda tahlili, tarjimashunoslikning fan sifatida rivojlanishini ochib bergan. Shu bilan bir qatorda, u o'z dissertatsiyasida tarjima tarixi va

tarjimaning rivojlanish bosqichlariga ham alohida to'xtalib o'tadi. Uning ta'kidlashicha, "Tarjimachilik ilmining adabiyotshunoslik yoki tilshunoslik faniga mansubligi xususida olimlar o'rtasida turli xil fikrlar mavjud bo'lib, ulardan ayrimlari tarjimashunoslikning tilshunoslik fani sohasiga mansub deb bilsalar, boshqa birlari uni adabiyotshunoslik sohasiga bog'liq deb hisoblaydilar" [Rabbanoqulov 2000: 10]. Bizningcha, tarjimashunoslik tilshunoslik va adabiyotshunoslik bilan birgalikda fanning filologiya sohasiga aloqador. Filologiya sohasining uch asosiy yo'nalishlari tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik hisoblanadi.

Tarjimashunoslik sohasida, ayniqsa, she'riy tarjimaning o'rni nihoyatda beqiyos. She'riy tarjimada shoir-tarjimonga nafaqat ikki til bilimlari, balki she'riy estetik nafosat ham kerak. Zero, bir yurakdan chiqqan she'r boshqa bir yurakka yetib borishi uchun, mohir tarjimonga she'riy estetika, etika va nafosat ham kerak. Gyotening quyidagi she'ri va uning tarjimasida esa aynan shu holat o'z aksini topgan.

*Und schnelle und unbegreiflich schnell
Dreht sich umher die Erde*

*Aql bovar etmas sur'atla zamin
Mavhar davrasida charx urayotir* [Jabborov 1995: 18].

Erkin Vohidov ushbu misralardagi **und schnelle und unbegreiflich schnell** jumlasini **aql bovar qilmas sur'atla** deb tarjima qilganda aynan shoirlik mahoratidan foydalangan holda tarjima qilganini ko'rishimiz mumkin. Zero, so'zma-so'z tarjimada bu jumlarlar **tez va aqlbovar qilmas tez** ma'nolarini anglatadi. Tarjimon esa ushbu jumalarni birlashtirib, umumiyashtirib tarjima qilgan.

She'riyat, - deb yozgan edi Gyote o'zining "She'riyat va haqiqat" nomli asarida, ayrim nozikta'b va tarbiyatli kishilarga avloddan avlodga meros bo'lib o'tadigan xususiy mulk emas, balki jumla jahonga, barcha xalqlarga xos iste'doddir [Jabborov 1995: 19]. She'riy tarjimada tarjimon tarjimaning qolgan turlariga qaraganda ko'proq muammolarga duch kelishi ham aynan mana shu sohada ko'plab tadqiqot ishlarining amalga oshirilishini talab etadi.

Madaniyatlar o'rtasidagi tafovutlar ham tarjima jarayonida qiyinchilik va muammolar keltirib chiqaruvchi hodisalardan hisoblanadi. Tahlilga tortayotgan tillarimiz ham bir-biriga nafaqat genetik jihatdan, balki diniy jihatdan ham qardosh bo'lmagan tillar hisoblanadi. Shunday ekan, ushbu tillardagi mavjud bo'lgan asotir, afsona va mifologik mavjudotlar ham turlichadir.

Masalan, uning "Legende" nomli she'rini Sa'dulla Hakim tomonidan qilingan tarjimasini tahlilga tortganimizda, yuqoridagi fikrlarning amaliy natijasini ko'rishimiz mumkin:

*In der Wüsten ein heiliger Mann
Zu seinem Erstaunen treffen an
Einen ziegenfüßigen Faun, der sprach:
"Herr, betet für mich und meine Gefährt',
Daß ich zum Himmel gelassen werd'.*

She'ning so'zma-so'z ma'nosi *Sahroda avliyosifat odam echki oyoqli favnni uchratganidan hayratlanganini va echki oyoqli favnning avliyoga iltijosi* borligi tasvirlangan. Ushbu to'rtlik Sa'dulla Hakim tomonidan quyidagicha tarjima qilingan:

Yashar edi, cho'lda bir befarq mulla-qavmga, (13) 6+7

Bir kuni u duch keldi echki oyoq favnga. (14) 7+7

Favn dedi mullani hayratga solib, ya'ni: (13) 6+7

Jannatga tushsam deyman, yumsam ko'zimni, (12) 7+5

Duo qiling bolalarim hamda o'zimni. (13) 8+5

Tarjimaning qatorlaridagi bo'g'inlar soni o'zaro muvofiq emas. She'riyatda qatorlardagi bo'g'inlarning teng yoki teng emaslik holatiga ko'ra **izometrik** hamda **heterometrik** she'r shakllari mavjud bo'lib, izometrik she'riy shakl deganda qatorlardagi bo'g'inlarning sonini teng bo'lishi nazarda tutilsa, heterometrik she'rlarda qatorlardagi bo'g'inlar soni har xil bo'ladi. Ushbu to'rtlikni heterometrik shaklga aloqador deyishimiz mumkin. Tarjimaning birinchi qatorida mullaga berilgan **befarq** sifati asliyatda mavjud emas, chunki qavmga befarq mulla ekanligi yoki uning aynan shu cho'lda yashashi asliyatda berilmagan. **Mulla** so'zi nemis madaniyatiga xos bo'lmagan so'z hisoblanib, ushbu so'z o'zbek tilining izohli lug'atida quyigacha berilgan:

1. *O'rta Sharq, Markaziy Osiyo mamlakatlarida madrasa ta'limini olgan shaxs.*

2. *Din arbobi, ulamo.*

3. *Ma'lumotli, o'qimishli kishi.*

4. *Hurmat yuzasidan murojaatda, gaplashganda, kishining ismiga qo'shib aytiladi [O'zbek tilining izohli lug'ati 2008: 634].*

Yuqoridagi ma'nolardan kelib chiqib, mulla so'zi ko'proq islom dini madaniyatiga xos bo'lgan so'z deb qaraladi. **Heiliger Mann** jumlasini esa o'zbek tiliga, **avliyo**, **avliyosifat kishi**, **donishmand** kabi so'zlar bilan tarjima qilish mumkin edi. Shundan kelib chiqib, **heiliger Mann** jumlasini o'zbek tiliga **mulla** deb qilingan tarjimasini ekvivalentlikning **konnotativ** turiga mansub deya hisoblashimiz mumkin.

Konnotativ ekvivalentlik kategoriyasi juda xilma-xildir. Bu kategoriyada til tarixiy, sotsiologiyistik va stilistik fenomenlar birlashtiriladi. Shuning uchun bu konkret tarjima uchun juda qiyin jarayon bo'lishi mumkin. E'tiborga molik jihati shundan iboratki, konnotativ ekvivalentlik bilan bog'liq holda tarjimonlar yana o'z "his-tuyg'ulariga" ishora ham qiladi.

Qolgan qatorlardagi so'zlarni o'zni almashgan bo'lishiga qaramasdan, asliyatdagi ma'no tarjimada ham to'liq saqlab qoling. Qofiya va ritmni saqlash uchun tarjimon to'rtinchi va beshinchi qatorlar o'rnini tarjimada almashtirgan. Bu bilan u shakl va mazmun jihatdan o'zaro hamohang tarjima yarata olgan. To'rtinchi qatordagi murojaatni bildiruvchi so'z **Herr** (janob) so'zi tarjimada mavjud emas.

Z. Isomiddinov o'zining "Tarjima va til" deb nomlangan adabiy maqolalar to'plamidan joy olgan "Yaqin turkiy tillardan she'riy tarjima qonuniyatiga doir" deb nomlangan maqolasida ta'kidlaganidek, "muayyan asarni tarjima qilishda uning janr xususiyatini hisobga olish shart. Busiz

tarjima shunchaki mexanik yumushga, bir qabildagi noijodiy mashg'ulotga aylanib qoladi" [Isomiddinov 2024: 14].

Tahlillardan kelib chiqib, o'zimizning quyidagicha tarjimamizni taklif qilamiz:

Yashar edi sahroda, avliyosifat dono, (14) 7+7
Duch keldi u bir kuni – hayron edi, lek ammo. (14) 7+7
So'zlar edi donoga echki oyoqli favn (13) 7+6
"Ey hazrat, meni sizdan bor bir kichik tilagim – (14) 7+7
Duo qiling, yetaylik men va ahlim jannatga. (14) 7+7

Tarjimaning uchinchi qatoridagi bo'g'inlar soni boshqa qatorlanikidan bitta kam bo'lishiga qaramay, she'rni o'qilganda favn so'zida talaffuzda bitta **i** unlisi orttirilishiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Ziegenfüßiger Faun (Rim va Yunoniston afsonalaridagi yarim odam yarim echki timsolidagi mavjudot) so'zini o'zbek tiliga echki oyoqli favn deb tarjima qildik, chunki Faun so'zning o'zbek tilida ekvivalenti mavjud emas. Shundan kelib chiqib, ushbu misol konnotativ ekvivalentlikning kompensatsiya turiga mos kelishini guvohi bo'ldik. Ushbu so'zni o'zbek o'quvchisiga tushunarli qilish uchun esa so'zga iqtibos berdik. She'riy qofiyani moslash uchun esa **heiliger Mann** jumlasini **avliyo** emas **avliyosifat dono** tarzda o'girdik. To'rtinchi qatoridagi murojatni bildiruvchi so'z **Herr** (janob) so'zini **Ey Hazrat** deya tarjima qildik. **Ey** undalma so'zni bildirib, murojaat ma'nosida kelsa, **hazrat** so'zi **janob** so'ziga **konnotativ** jihatdan ekvivalent bo'la oladi.

She'rning oxirgi to'rtligi aslyatda quyidagicha berilgan:

Da sprach hierauf der wilde Mann:
"Was hat euch mein Ziegenfuß getan?
Sah ich doch Manche stark und schön
Mit Eselsköpfen gen Himmel gehn."

Ushbu to'rtlikning so'ma-so'z ma'nosi yovvoyi odamning murojaatidan iborat bo'lib, echki oyoqli ekani unga qanday ziyoni tegishi, kuchli va chiroyli, lekin eshakboshlar ham ba'zan jannatga kirishi tasvirlangan. To'rtlikdagi **der wilde Mann** birikmasi o'z ma'nosida yovvoyi odam tarzda tushunilsa she'r mazmunidan uning **echki oyoqli favn** ekanligini anglash qiyin emas. Oxirgi ikki qatorida esa **eshakbosh bo'lsa ham ba'zi chiroyli va kuchlilar jannatga kiradi** deya faylasufona fikrlar ifodalangan. **Eshakbosh** deganda **hech kimni aytganini qilmaydigan, bilganidan qolmaydigan odamlar** nazarda tutiladi. Sa'dulla Hakim ushbu misralarni quyidagicha o'zbek tiliga o'giradi:

Nima qipti echki oyoq bo'lsam, taqsirim (13) 8+5
Nahot Olloh aybi bilan qolsam baloga? (13) 8+5
Bilamanki, ba'zi xarboshlarni tangrim (12) 6+6
Bir so'z demay qabul qilgay arshi a'loga. (13) 8+5

Ushbu tarjimaning avvalo shakliy jihatiga e'tibor qaratsak, birinchi, ikkinchi va to'rtinchi qatorlardagi bo'g'inlar soni 13 tadan, faqatgina uchinchi qatoridagi bo'g'inlarning soni 12 ta tashkil etadi. Shundan kelib

chiqib, ushbu she'riy tarjima to'rtligini *heterometrik* she'rlar sirasiga kirishini aniqladik. Ikkinchi va to'rtinchi qatorlardagi *baloga* va *a'loga* so'zlari bir-biriga qofiyadosh so'zlar hisoblanadi. *Der wilde Mann* birikmasi tarjimada tushib qolgan. Tarjimada berilgan *taqsirim* murojatni bildiruvchi so'z asliyatda mavjud emas.

Tarjimadagi *Oллоh aybi bilan* jumalari asliyatda mavjud emas. Zero Alloh hech qachon ayb ish qilishi mumkin emas. *Ba'loga qolsam* jumlasida esa asliyatni yanda badiiylashtirib ifoda qilishga xizmat qilgan. Asliyatda shoir *echki oyoqligimni kimga qanday ziyoni bor. Oллоh meni echki oyoq qilib yaratishni xoxlagani uchun shunday yaratilganman* tarzda bildirilgan fikr tarjimada istiora orqali ifodalangan. Bu esa V. Koller klassifikatsiyasiga asosan pragmatik ekvivalentlikni keltirib chiqargan. Ya'ni kitobxon ongiga ba'loga qolmoq birikmasi qilinmagan ish uchun aybdor bo'lib qolish degan fikrni olib keladi. Oxirgi qatordagi *Himmel* so'zining nemischadan ikki xil tarjimasi bo'lib, birinchisi *osmon* degan ma'noni anglatadi, ikkinchisi *jannat* degan ma'noni anglatadi. Tarjimon esa ushbu so'zni *arshi a'lo* deb tarjima qilgan. Tahlil jarayonida *arshi a'lo* so'zining ma'nosini "O'zbek tilining izohli lug'ati"ning 103-sahifasida shunday berilganini guvohi bo'ldik:

Arshi a'lo

1) eng yuqori arsh;

2) yuksak joy, osmon, falak.

72-sahifasida esa *jannat* so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan:

Jannat

1) behisht; bo'ston, serdaraxt bog'i. Begunoh, taqvodor kishilar u dunyoda yashaydigan rohat-farog'atli joy, behisht;

2)(ko'chma ma'noda) hamma narsa muhayyo bo'lgan, obod, rohatbaxsh, xushmanzara joy.

Demak, ma'no jihatdan ikkala so'z ikki xil ma'noni ifodalaydi. Qolaversa, Gyote she'rining boshlanishida *echki oyoqli favnni jannatga* tushishni xoxlashi haqida yozgan edi. Tarjimon ham oldingi qatorlarida ushbu so'zni "*jannat*" deb tarjima qilgan. Tilimizda "arshi a'lo" bilan bog'liq maqollar uchrab turadi. Masalan, "Arshi a'loga ravona qilmoq" o'ldirmoq ma'nosini anglatadi. Vaholanki, vafot etgan insonning jannatga yoki do'zaxga tushishi yolg'iz Allohga ayon.

Gyote she'rlari XVIII–XIX asrning nemis madaniyatiga xos bo'lib, unda zamonaviy madaniy tasavvurlar va qadriyatlar hali to'liq shakllanmagan edi. O'zbek tilidagi ekvivalentlarni topishda madaniy tafovutlar asosiy to'siqlarni tashkil etadi. Ba'zi nemis madaniy va tarixiy atamaları, xususan, xalq an'analari va urf-odatlariga oid so'zlar, o'zbek tilida to'g'ri ekvivalentlarga ega bo'lmasligi mumkin. Misol uchun, yuqorida tahlil qilgan she'rimizdaagi "ziegenfüßigen Faun" so'zi o'zbek tilida aynan mavjud emas. Ushbu so'z tarixda Rim va grek afsonalaridan kirib kelgan, *yarim odam yarim echki* mifologik mavjudotni anglatadi. Sa'dulla Hakim esa bu so'zni echki oyoq favn deb tarjima qilgan. Ushbu tarjima V. Koller nazariyasi bo'yicha *dennotativ* ekvivalentlikning 1: 0, *kompensatsiya* turiga mos keladi. Lekin tarjima tilida kitobxon ushbu she'rni o'qir ekan, echki ovoq favn so'ziga tushunmaydi. Shuning uchun o'g'irish jarayonida tarjimon yuqoridagi holatlarga iqtibos berish orqali so'zning ma'nosini tushuntirib berishi lozim. So'z darajasidagi

ekvivalentlikni topib tarjima qilishda ba'zi holatlarda so'z va iboralarning har bir ma'no qatlamini o'zbek tilida to'g'ri yaratish qiyin bo'ladi. Tarjimada ba'zan ma'no yo'qotilishi, noaniqlik yoki komponentlarning birortasi o'zgartirilishi mumkin, bu esa asliyatdagi she'rning badiiy qiymatini kamaytiradi.

Yuqoridagi nazariy asoslar va amaliy tahlildan kelib chiqib, ushbu to'rtlikka o'zimizning quyidagi tarjima variantimizni taklif qilamiz:

Echki oyoq ham shunda avliyoga so'zladi(14) 7+7
"Echki oyog'im sizga nima ziyon qiladi?(14) 7+7
Ba'zan guvoh bo'lamiz – go'zal yuz-u silliq tan (14) 7+7
Lekin, eshak boshlar ham jannatlarga kiradi". (14) 7+7

Qatorlardagi hijolar va turoqlanishning tengligiga nisbatan, ushbu to'rtlikni izometrik she'riy shaklga oid ekanligi aniqlandi. Ikkinchi qatorda berilgan **euch** so'zi tarjimada sizlarga emas, sizga tarzda berilgan. Aslida nemis tilida **euch** so'zi **sizlarga** tarzida tarjima qilinishi kerak. Ushbu tarjima ekvivalentligi turi **matn muvofiqligi ekvivalentligi** hisoblanib, tarjimada o'zbek tilidagi barmoq vaznida bo'g'inlar soni teng bo'lishi kerak degan talabdan kelib chiqib, **sizlarga** so'zi **sizga** tarzda qo'llangan.

Gyote she'riyatining yana bir namunasi "**Der König in Thule**" balladasi bo'lib, ushbu balladada shoir Tulada yashagan qirol va uning suyakli yori vafot etganidan keyingi holati aks ettiriladi. She'r o'zbek tiliga O. Jumaniyozov tomonidan **Thula shohi** tarzida tarjima qilinadi. Ushbu she'rning har bir to'rtligini alohida quyidagicha tahlilga tortdik:

Der König Thule
Es war ein König in Thule,
Gar treu bis an das Grab,
Dem sterbend seine Buhle
Einen goldnen Becher gab.

Ushbu to'rtlikning so'zma-so'z tarjimasi Thulada bir qirol yashagani, u qirolning juda ham sodiq va sadoqatli ekanligi, uning suyakli yori vafot etib, undan oltin qadah meros bo'lib qolganligi haqida yozilgan. O'zbek tilidagi tarjimasi esa quyidagicha:

O. Jumaniyozov tarjimasi:

Thula shohi
Yashagandi Thulada bir nodir shoh, (11) 7+4
Qabrgacha bo'lib unga odillik hamroh, (12) 7+5
Biroq bir kun suyaklisi o'lib qoldi, (12) 8+4
Shohga undan oltin qadah meros qoldi. (12) 8+4

Ushbu tarjima o'zbek tiliga semantik ekvivalent tarjima hisoblanadi. Chunki tarjimon nemis tilida berilgan ma'noni va shoir niyatini to'liq ochib bera olgan. Shakliy jihatdan yondashilganda esa ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qatoridagi bo'g'inlar soni 12 ta. Lekin negadir birinchi qatordagi bo'g'inlar soni 11 ta bo'lib qolgan. Qatorlardagi hijolar sonining teng emasligi she'rning heterometrik she'riy shaklga aloqador ekanligini

keltirib chiqargan. **Shoh, hamroh, o'lib qoldi, meros qoldi** so'zlari bir-biriga mutlaq qofiya hisoblanadi. Birinchi banddagi tarjimaning birinchi qatorida esa **nodir** degan so'z asliyatda mavjud emas. *Nodir* so'zining o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagi ma'nolari borligi aniqlandi: 1. *Kam topiladigan, noyob.* 2. *Qimmatbaho, bebaho, asl.* 3. *Kam uchraydigan.* 4. *Erkaklar ismi.* Tarjimon ushbu o'rinda so'zning uchinchi ma'nosini nazarda tutgan. Bizningcha, **Yashagandi bir paytlar Thulada bir shoh**, tarzda tarjima aynan asliyatga mos tushar edi. Zero **bir paytlar** so'zi ham asliyatda mavjud emas, lekin *Präteritum* zamonida qo'llanilgan **Es war** jumlasini uchun **bir paytlar** so'ziga ma'no jihatdan ham, shakl jihatdan ham mos tushadi. Qolaversa, hijolar soni ham bir xil bo'lgan bo'lar edi. Uchinchi qatordagi **o'lib qoldi** jumlasini o'rniga **vafot etdi** jumlasini qo'llanilganda edi, she'rning badiiyligi va ta'sirchanligi ancha oshar edi. Ikkinchi qatordagi **treu** so'zi o'zbek tiliga *odillik* deya so'z turkumi o'zgarib tarjima qilingan bo'lsa-da, ma'no saqlanib qolgan va shu bilan bir qatorda dennotativ ekvivalentlikka erishilgan. Asliyat tilidagi **Buhle** so'zi eskirgan so'z hisoblanib, shoirona tilda va asosan badiiy uslubga oid so'zdir. Ushbu so'zni tarjimon **suyuklisi** tarzda qilgan tarjimasi **konnotativ** ekvivalentlikka misol bo'la oladi. Asliyatdagi uchinchi va to'rtinchi qatorlarda vafot etayotgan yorining qiroлга oltin qadah berganligi tasvirlangan. Buni tarjimon **shohga undan oltin qadah meros qoldi** deb pragmatik ekvivalentlik darajasida tarjima qilgan. Chunki har qanday dinda yoki madaniyatda ham vafot etayotgan insonni boshqa insonlarga qoldirayotgan narsasi, mol-mulki **meros** hisoblanadi. Ushbu tarjima esa V. Koller klassifikatsiyasiga ko'ra ekvivalentlikning pragmatik darajasini keltirib chiqarsa, Komissarov klassifikatsiyasiga ko'ra, semantik turini keltirib chiqargan. O'rganilgan tahlillardan kelib chiqib, quyidagicha tarjima qilishga harakat qildik:

Yashagandi bir paytlar Thulada bir shoh, 12 (7+5)
Qabrgacha edi unga adolat hamroh. 12 (7+5)
Biroq birdan suyuklisi vafot etdi, 12 (8+4)
U qiroлга oltin qadah tashlab ketdi. 12 (8+4)

Ushbu tarjimada ko'rishimiz mumkinki, har bir qatordagi bo'g'inlar soni 12 tadan, turoqlanishi esa birinchi va ikkinchi qatorlarda 7+5, uchinchi va to'rtinchi qatorlarda esa 8+4 tarzda turoqlanganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Balladaning ikkinchi to'rtligining tahlili quyidagicha:

*Es ging ihm nichts darüber,
 Er leert' ihn jeden Schmaus,
 Die Augen gingen ihm über,
 So oft er trank daraus.*

Ushbu to'rtlikning ma'nosi podshohning sevgilisi sovg'a qilgan oltin qadahni hamma boyliklaridan ustun qo'yishi, har bir ziyofatda unga may to'ldirib ichganida yig'lashni boshlashi haqida yozilgan. Ushbu to'rtlik O. Jumaniyozov tomonidan quyidagicha tarjima qilingan.

Keyin unga bo'ldi muttasil pasha, 11 (6+5)
Bazmlarda qadah bo'shatish hamisha: 11 (5+6)

*Qadahga nigohi tushsa ko'zi uchardi, 13 (8+5)
Darhol unga sharob quyib rosa ichardi.13 (8+5)*

Podshohning doimo sevgilisidan qolgan oltin qadahda sharob ichishi, uning vafot etgan ma'shuqasiga bo'lgan sadoqatini anglatadi. Ya'ni har qanday bazmda u qadahga may solib ichishga odatlanadi. Birinchi qatorda ishlatilgan **pesha** so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida eskirgan so'z hisoblanib, asosan kitobiy til uchun mos so'z, ma'nosi **kash, mashg'ulot va odat** kabilardan iborat. Ushbu so'z asliyat matnida mavjud bo'lmagan va u tarjimon tomonidan ma'noni yetkazib berish, mazmunni kengaytirish, poetik ohangdorlikni saqlash hamda madaniy tafovutlarni yo'qotish uchun qo'shilgan. Bu orqali tarjimada bir tomondan **pragmatik** ekvivalentlikka erishishga harakat qilingan bo'lsa, eskirgan so'zni qo'llash orqali **konnotativ** ekvivalentlik ta'minlangan. V. Koller pragmatik ekvivalentlikni muhokama qilganda, o'zining preskriptiv tarjima tushunchasi bilan ro'baro keladi. Bir tomondan, u tarjima fanining "ma'lum tillar juftligi va matnlar uchun muayyan qabul qiluvchi guruhlar nuqtayi nazaridan kommunikativ shartlarni tahlil qilib, pragmatik ekvivalentlikni ta'minlash uchun prinsiplari va usullarini ishlab chiqishi kerak" deb ta'kidlaydi. Uning fikrlariga asoslanib, tarjima matnlari kitobxon manfaatlarini hisobga olgan holda qayta ishlanadi deb fikr bildirish mumkin.

Pesha, hamesha, uchardi, ichardi so'zlari ushbu she'rdagi mutlaq yoki to'q qofiyani tashkil qilib, she'rning ohangdorligini yanada oshirgan. Uchinchi qatordagi **die Augen gehen** ibora hisoblanib, DWDS elektron lug'atida uning quyidagi ma'nolari mavjud ekanligi aniqlandi:

1. *Kundalik muloqot uslubida, biror kimning biror bir hayratlanarli narsani ko'rib hayratlanishini bildiradi.*

2. *Badiiy uslubda ishlatiladi, yuqori uslubiy qatlamga tegishli, kimnidir yig'lashni boshlaganini bildiradi.*

Tarjima shunday jarayonki, amaliyotda ba'zi hollarda tarjimon asliyatdagi gap yoki iboralar mazmuniga yetarlicha e'tibor bermagan holatlar ham kuzatiladi. Shunday holatlardan biriga aynan mana shu tarjima tahlilida guvoh bo'ldik. Ushbu tarjimada **die Augen gehen** iborasi ibora holida emas, so'zma so'z **nigohi tushsa** tarzda tarjima qilingan. Bizga ma'lumki, iboralar frazeologizmlar hisoblanib, ularning 3 ta xususiyati mavjud: 1. Ko'p so'zlilik, har bir frazeologizm ikki yoki undan ortiq so'zdan iborat bo'lishi kerak. 2. Turg'unlik, frazeologizmlarning komponentlarini o'zgartirib bo'lmaydi. 3. Ko'chma ma'noga ega bo'lishi, har qanday frazeologizm ko'chma ma'noga ega bo'lishi kerak. Xuddi shu qatordagi **ko'zi uchmoq** iborasi asliyat tilida mavjud emas. Ushbu iboraning ikki ma'nosi bo'lib, birinchisi o'z ma'nosida, ya'ni ko'zning noodatiy harakatiga nisbatan ishlatiladi. Ikkinchi ma'nosi esa ko'chma ma'no hisoblanib, quyidagi ma'nolarni bildiradi: 1) **kimnidir yoqtirib qolish**; 2) **ko'rgan narsasiga qiziqib qolmoq, o'sha narsani xoxlab qolmoq**. Ushbu iborani ishlatish orqali tarjimon **pragmatik** ekvivalentlikdan foydalangan. Chunki bizning madaniyatimizda kimgadir **ko'zi uchmoq** iborasi og'zaki nutqda ko'rgisi kelmoq kabi ma'noni ham ifodalaydi. Tarjimada asliyatda ifodalangan shohning qadahga sharob to'ldirib ichgandagi ichki hissiyoti to'liq ochilmay qolgan. Qadahga

sharob to'ldirib ichganida, suyaklisini eslab ko'ziga yosh olishi ushbu to'rtlikning asosiy g'oyasini tashkil etgan.

Tahlillar natijasidan ko'rib turganimizdek, O. Jumaniyozov tarjimasida formal jihatdan mutlaq qofiya o'z aksini topgan. Qatorlar so'ngidagi so'zlar *a-, a-, b-, b-* tarzda qofiyalangan. Tarjima qilingan she'rdagi har bir qatordagi bo'g'inlar soni ham ularning qanaqa holatda va tartibda turoqlangani she'rning fonetik, intonatsiya va ritmik holatlariga ta'sir ko'rsatgan. Natijada esa she'rlarda shiddatli ohang yuzaga kelgan. Ekvivalentlikning V. Koller klassifikatsiyasiga ko'ra **dennotativ**, **pragmatik** va **konnotativ ekvivalentlik** turlari, Komissarov klassifikatsiyasiga ko'ra **formal** va **semantik** ekvivalentlik turlari qo'llanilgan. O. Jumaniyozov tarjimasidagi yuqorida tahlil qilingan qo'shib yuborishlarni har qanday she'riy tarjimada kuzatishimiz mumkin. Mazmun bilan birga shakl ham asosiy planda turar ekan, she'riy tarjimini yo'qotish, qo'shish va o'zgartirishlarsiz tasavvur qilish qiyin. Tahlillar natijasida ushbu to'rtlikka quyidagicha tarjima variantini taklif qildik:

Emas edi hech mol-mulk qadahdan a'lo, 12 (7+5)

Bazmlarda may ichardi bo'lib muftalo. 12 (7+5)

Ko'zlariga kelar edi yosh shashqator 12 (8+4)

Har lahzada qadahda may ichsa bir bor. 12 (8+4)

Xulosa

Ushbu maqolada she'riy tarjimada ekvivalentlik masalasi turli lingvistik yondashuvlar asosida tahlil qilindi va poetik matnning tarjimada qanday badiiy va uslubiy o'zgarishlarga uchrashi ilmiy asosda yoritildi. Tadqiqot davomida poetik matnni tarjima qilishda nafaqat semantik moslik, balki uslubiy, estetik va madaniy moslik ham muhim omil ekani yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

Asl va tarjima matnlarni lingvopoetik jihatdan tahlil qilish natijasida tarjimonning ijodiy qarorlari, poetik obrazlarni yaratishdagi uslubiy tanlovlari va badiiy ifoda vositalarini qo'llash mahorati ochib berildi. Komponentli tahlil esa tarjima jarayonida so'z va iboralarning ma'nodoshlik darajasi, madaniy yuklamasi va kontekstual mosligiga e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatdi.

Lingvostilistik yondashuv orqali tarjimon uslubining individual xususiyatlari aniqlanib, tarjima qilingan matnning badiiy-estetik ta'sirini baholash imkoniyati yaratildi. Bu esa tarjimini faqat texnik jarayon emas, balki chuqur estetik va ijodiy faoliyat sifatida ko'rishga asos bo'ldi.

Gyote she'riyatining o'zbek tiliga tarjimalarida tarjimonlar ba'zi holatlarda frazeologizmlarning ekvivalentini qo'llamasdan, ularning so'zma-so'z qilinayotgan tarjimasi oqibatida she'rning asosiy g'oyasi o'zgarib ketgan. Bu esa o'quvchi ongida noto'g'ri dunyoqarashni shakllanishiga sabab bo'ladi.

Tarjimondan asarni tarjima qilish jarayonida muallifning hayoti va ijodidan, o'ziga xos uslubiy yo'nalishidan, asar yaratilgan paytdagi muallif ijodiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan lingvistik va ekstralingvistik omillardan, asliyat muallifi qadriyatlarini, dini, madaniyati va mentalitetidan xabardor bo'lish talab qilinadi.

She'riyat tarjimasidagi ekvivalentlikning ta'minlanishini quyidagi yettita mezon bilan o'chash mumkinligi aniqlandi:

- 1) yuqori darajadagi semantik hamda struktural ekvivalentlik;
- 2) tarjimadagi pragmatik ekvivalentlikni to'liq saqlanganligi;
- 3) kerakli so'z va iboralarni qo'llash jarayonida konnotativ ekvivalentlikning mavjud ekanligi;
- 4) tarjima tilidagi she'riy qonunlariga bo'ysungan holda matn muvofiqligi ekvivalentligini ta'minlash;
- 5) musiqiylik va ohangni ta'minlashda shakliy estetik ekvivalentlikni saqlash;
- 6) she'rdagi ruhiyatni aniq aks ettirishda dennotativ ekvivalentlikning saqlanganligi;
- 7) muallif g'oyasini va asar mazmunini maksimal ifodalash.

Umuman olganda, maqola doirasida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, she'riy tarjimada ekvivalentlikka erishish ko'p qirrali, kompleks yondashuvni talab etadi. Tarjimon nafaqat lingvistik bilim, balki poetik sezgi, madaniy anglash va uslubiy moslikni ta'minlash mahoratiga ham ega bo'lishi lozim.

Mazkur ilmiy ishda qo'llanilgan yondashuvlar nafaqat mavjud tarjimalarni baholashda, balki yangi tarjima namunalarini yaratishda ham samarali metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot natijalari poetik tarjimaning nazariy va amaliy jihatlarini yanada chuqurroq anglash hamda tarjima nazariyasini boyitish yo'lida muhim qadam hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Abdullayeva R. *Shiller va o'zbek adabiyoti*. — T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2018. — 152 b.
- Bakaeva M. K. *Angliya, AQSH adabiyotidan o'zbek tiliga she'riy tarjima va qiyosiy she'rshunoslik muammolari. Filol. fan. nomz diss.* — Buxoro: Fayzulla Xo'jayev nomidagi Buxoro davlat universiteti, 2004. — 305 b.
- G'ofurov I. *Tarjimada aniqlik kerak emasmi? // O'zbekiston adabiyoti va san'ati*. — 2022. — № 8.
- Hamidov X. *O'zbek qissa va romanlari turk tilida*. — T.: "EFFECT-D" nashriyoti, 2022. — 160 b.
- House J. *Möglichkeiten der Übersetzungskritik*. — Tübingen, 2002. — 126 S.
- Imyaminova Sh, Avazov B. *Tarjima – murakkab jarayon*. — T.: Ma'rifat, 2024. — 103 b.
- Isomiddinov Z. *Tarjima va til. (Adabiy maqolalar to'plami)*. — T.: Adabiyot nashriyoti. 2024. — 319 b.
- Jabborov S. D. G'yotening "*G'arbu-sharq devoni*". *Matn. Talqin. Tarjima. Filol. fan. nomz diss.* — Toshkent, 1995. — 167 b.
- Koller W. *Einführung in die Übersetzungswissenschaft*. — Wiebelsheim: Quellen und Meyer, 2001. — 374 S.
- Kulemina K. V. *Ekvivalentnost i adekvatnost v perevodakh poeticheskikh tekstov: Diss. kand. filol. nauk*. — Pyatigorsk: Pyatigorsk gosudarstvenniy lingvisticheskiy universitet, 2006. — 198 c.
- Musayev Q. *Tarjima nazariyasi asoslari*. — T.: Fan nashriyoti, 2005. — 352 b.

- Ochilov E. *Tarjimashunoslikning nazariy masalalari*. — T.: Innovatsion ziyo, 2022. — 290 b.
- Odilova G. *Ingliz va o'zbek mumtoz she'riyati tarjimalarida adekvatlik muammolari: PhD diss. in phil. scien.* — Toshkent, 2011. — 147 b.
- Rabbanoqulov H. *O'zbekistonda tarjimashunoslik ilmining taraqqiyoti: PhD diss. in phil. scien.* — Toshkent, 2000. — 124 b.
- Salimova D. *She'riy tarjimada badiiy niyat va poetik mahoratning qayta ifodalanishi: PhD diss. in phil. scien.* — Toshkent, 2018. — 147 b.
- Salomov G'. *Tanlangan asarlar*. — T.: Adabiyot nashriyoti, 2023. — 380 b.
- Salomov G'. Komilov N. *Do'stlik ko'priklari*. — Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. — 222 b.
- Sodiqov Z. *Tarjima nazariyasi va amaliyoti*. — T.: Bookmany Print, 2023. — 165 b.
- Tuxtasinov I. M. *Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish: Ped fan dok diss.* — T.: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 2018. — 242 b.
- Xatamova D. Ekvivalentlik – adekvatlikning bosh mezonini // *Tarjimashunoslar forumi*. — 2022. — 146–152 b.
- Yo'ldoshev U. *Tarjimada ekvivalentlik va uning turlari // Ommaviy axborot vositalarida til va uslub masalasi: tahlil, tasnif, qiyos.* — Toshkent: O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalari universiteti, 2023. — 301 b.
- O'zbek tilining izohli lug'ati. IV jild. — T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. — 608 b.

References

- Abdullaeva, R. (2018). *Shiller va o'zbek adabiyoti (Schiller and Uzbek literature)*, Tashkent, Uzbekistan Milliy kutubxonasi. (In Uzb.)
- Bakaeva, M. K. (2004). *Angliya, AQSH adabiyotidan o'zbek tiliga she'riy tarjima va qiyosiy she'rshunoslik muammolari* (Candidate's thesis), Bukhara, Fayzulla Xo'jaev nomidagi Bukhara State University. (In Uzb.)
- G'ofurov, I. (2022). Tarjimada aniqlik kerak emasmi?, *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, No. 8. (In Uzb.)
- Hamidov, X. (2022). *O'zbek qissa va romanlari turk tilida (Uzbek stories and novels in Turkish)*, Tashkent, EFFECT-D nashriyoti. (In Uzb.)
- House, J. (2002). *Möglichkeiten der Übersetzungskritik*, Tübingen. (In Ger.)
- Imyaminova, Sh., & Avazov, B. (2024). *Tarjima – murakkab jarayon (Translation as a complex process)*, Tashkent, Marifat. (In Uzb.)
- Isomiddinov, Z. (2024). *Tarjima va til (Translation and language)*, Tashkent, Adabiyot nashriyoti. (In Uzb.)
- Jabborov, S. D. (1995). *Gyotening "Garbu-sharq devoni": Matn. Talqin. Tarjima* (Candidate's thesis), Tashkent. (In Uzb.)
- Koller, W. (2001). *Einführung in die Übersetzungswissenschaft*, Wiebelsheim, Quellen und Meyer. (In Ger.)
- Kulemina, K. V. (2006). *Ekvivalentnost i adekvatnost v perevodakh poeticheskikh tekstov* (Candidate's thesis), Pyatigorsk, Pyatigorsk State Linguistic University. (In Rus.)

- Musaev, Q. (2005). *Tarjima nazariyasi asoslari (Fundamentals of translation theory)*, Tashkent, Fan nashriyoti. (In Uzb.)
- Ochilov, E. (2022). *Tarjimashunoslikning nazariy masalalari (Theoretical issues of translation studies)*, Tashkent, Innovatsion ziyo. (In Uzb.)
- Odilova, G. (2011). *Ingliz va ozbek mumtoz she'riyati tarjimalarida adekvatlik muammolari* (PhD thesis in philological sciences), Tashkent. (In Uzb.)
- Rabbanqulov, H. (2000). *Ozbekistonda tarjimashunoslik ilmining taraqqiyoti* (PhD thesis in philological sciences), Tashkent. (In Uzb.)
- Salimova, D. (2018). *She'riy tarjimada badiiy niyat va poetik mahoratning qayta ifodalanishi* (PhD thesis in philological sciences), Tashkent. (In Uzb.)
- Salomov, G'. (2023). *Tanlangan asarlar (Selected works)*, Tashkent, Adabiyot nashriyoti. (In Uzb.)
- Salomov, G'. & Komilov, N. (1979). *Do'stlik ko'priklari (Bridges of friendship)*, Tashkent, G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va sanat nashriyoti. (In Uzb.)
- Sodiqov, Z. (2023). *Tarjima nazariyasi va amaliyoti (Theory and practice of translation)*, Tashkent, Bookmany Print. (In Uzb.)
- Tuxtasinov, I. M. (2018). *Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish* (Doctor's thesis in pedagogical sciences), Tashkent, Uzbekistan State University of World Languages. (In Uzb.)
- Xatamova, D. (2022). Ekvivalentlik – adekvatlikning bosh mezon, *Tarjimashunoslar forumi*, pp. 146–152. (In Uzb.)
- Yo'ldoshev, U. (2023). Tarjimada ekvivalentlik va uning turlari, *Ommaviy axborot vositalarida til va uslub masalasi: tahlil, tasnif, qiyos*, Tashkent, Uzbekistan Journalism and Mass Communication University, 301 p. (In Uzb.)
- Ozbek tilining izohli lug'ati* (2008). Vol. IV, Tashkent, Uzbekistan Milliy Ensiklopediyasi. (In Uzb.)